

ZUHD MAQOMI MOHIYATI VA ZOHID OBRAZIDAGI KOMILLIK SIRI**Omanboyeva Aziza Doniyor qizi****Ma'mun universiteti****"Tillar va adabiyot" kafedrası o'qituvchisi****Omanboyevaaziza1@gmail.com****+99890 184-30-99****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619573>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotining ajralmas bir qismi hisoblangan tasavvuf adabiyotida zuhd maqomining o'rni, ahamiyati, ta'limotning yuzaga kelishi sabablari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Zuhd, zuhhod, ubbod.

Abstract. In this article, the place, importance of ascetic status and the reasons for the emergence of the doctrine are explained in Sufism literature, which is an integral part of Eastern classical literature.

Keywords: Zuhd, zuhhod, ubbod.

Аннотация. В данной статье раскрываются роль и значение аскетического статуса, а также причины возникновения этого учения в суфийской литературе, которая является неотъемлемой частью восточной классической литературы.

Ключевые слова: Аскетизм, аскет, духовенство.

Nafsga qarshi mujohadaning ko'p chuqur usullarini qamrab olgan zuhd hayoti dastlabki paytlarda inson ruhini kamolga yetkazuvchi eng ishonchli yo'llardan bo'lgan. ...Nafsni qiynash, riyozatni zavq darajasiga yetkazish avomning azob-u jafosiga bardoshli bo'lish sabr-qanoatni boshiga toj aylash – bular tasavvufdan oldin zuhd sinovidan o'tgan holat va tajribalar edi. [1.13] Ilohiy amrlar va hayotiy tajribalar asnosida dunyoga kelgan zuhd ta'limoti bugun ham o'z qimmatini va foydasini yo'qotmagan. Dunyoning foniyligini anglagan oxiratning boqiyiligini tushunadi. Baqoga bo'lgan ishonch, fanoga bo'lgan qullikdan ozod qiladi. Natijada, istig'no maqomiga ko'tarilgan inson o'zining ehtiyoji faqat Yaratganda ekanligini fahmlaydi. Bandalikni tan olish bilan hurlik boshlanadi. Zuhdda ozodlik bor, zohid haqiqiy hurdir. Tasavvuf tarixida zuhd davrining muhim ahamiyati, shubhasiz, badiiy adabiyotda ham o'z aksini topdi. Zuhd davridan oriflik davriga o'tgan tasavvuf, zuhdiy qarashlaridan voz kechgani yo'q. Zuhd pillapoyasini bosib, keyingi martabaga yuksaldi xolos. Zuhdiy amallarni ado etib, oshiqona muroqaba, orifona mushohadaga erishildi. Zohidona tarkni amalga oshirgachgina xoslar tarkiga yetildi. Adabiyotda ham ma'rifiy maslak mohiyati zuhdiy g'oyalar bilan uyg'unlikda ochib berildi. Oshiq, yor, orif, rind, soqiy, qalandar, darvesh, raqib kabi bosh obrazlarning xarakter xususiyati, estetik asoslari zohid obrazi bilan parallellikda yoxud qarshilantirishda teranroq yoritib berildi.

Ammo haqiqiy zohidlik oxirat masalasida ham zohidlik qilishni talab qiladi. Zohid jannat ne'matlari va darajalariga qiziqmasligi kerak. Zero, oxirat ham maxluqdir. Yaratguvchi bor ekan, maxluq bilan muomala qilish bema'nilik. Boyazid Bistomiy o'z tajribasini quyidagi iboralar bilan ifodalaydi: "Uch kun zohidlikda qoldim, to'rtinchi kuni chiqdim: Birinchi kuni dunyoga, dunyoda bo'layotgan voqealarga qarshi zohid (befarq, qadrsiz, istaksiz) bo'ldim.

Ikkinchi kuni oxirat va undagi narsalarga qarshi zohid bo'ldim. Uchinchi kuni Allohdan boshqa narsaga zohid bo'ldim. To'rtinchi kuni Allohdan boshqa hech narsa qolmadi. Ilohiy sevgi meni hayratda qoldirdi. Zohidlik oxiratga qaratilgan bo'lsa-da, oxiratga qarshilik qilish istagida emas, balki oxiratni kamsitishdan uzoqda, uni Alloh taoloni mushohada qilish maqomi deb bildilar. Inson o'z zuhdiga qarshi ham zohid bo'lishi kerak. Dunyoga yoqmaslik, dunyoni yoqlamaslik holati zohidlik deyiladi. Zohidlar nazdida, dunyoning borligi va yo'qligi bir xamda tengdir.

*Oshiq qullar bu dunyoni ko'zga ilmas,
Dunyo ayshin zohid qullar tilga olmas,
Kecha-kunduz mastu hayron, o'zga kelmas,
Diydor tilab, ko'ksin teshib, nolon qilur.*

Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Qul Ubaydiy kabi hollari Allohga bo'lgan qullik bo'lgan so'fiy ijodkorlar hikmatlari ham zohid obrazini adabiyotda gavdalantirdi. Lirik qahramonlar orasida zohidning o'ziga xos o'rni bor. Jumladan, zohid obrazi boshqa obrazlar orasida o'z mavqe martabasiga ega bo'lib, hol va tuyg'ularni ifodlashda ba'zi obrazlar mohiyatini to'ldirdi, ba'zilari bilan mohiyatda qarama-qarshi qo'yildi. Alloh taolaga yuzlanish uchun dunyo va barcha narsa mosuvollik muhimligiga e'tibor qaratgan Yahyo ibn Muoz dunyo bezangan yangi kelinga o'xshaydi, dunyoga rag'bat etganlar uning atrofida aylanishga tushishadi, zohidlar esa uning yuzini ko'mir bilan qoraytirib, sochini yulib, ko'ylagini yirtib tashlashlarini, oriflar esa Alloh taolo bilan mashg'ul bo'lganliklaridan ham bu yangi kelinga iltifot qilmasligini aytadi. [10] Qalbini Allohdan boshqa barcha havoyi nafslardan bo'shatgan va tark qilinmagan zaruriy narsalardan boshqa har narsadan qalbini poklagan kishining ya'ni zohidning vara'siz (parhezsiz) zohid bo'lishi mumkin emasligini, odam, avvalo, o'ziga tegishli bo'lmagan narsaga qarshi vara'da bo'lishi kerakligini, so'ngra unga tegishli bo'lgan narsada zohidlik ko'rsatishi mumkinligini aytadi. Zohidlar har doim o'z-o'zini yaxshilash bilan band bo'lib, o'z xohish-istaklarini cheklashga va o'z-o'zini nafsini kutishdan qochishga harakat qilishadi. Suryon Saqatiy zohidning o'z nafsini tarbiyalash bilan mashg'ul bo'lishi, orifning esa Robbisi bilan mashg'ul bo'lishi ma'nosida shunday deydi: "Zohid o'z nafi bilan mashg'ul bo'lmasa, uning hayoti yoqimli bo'lmaydi, aksincha, orif ruhi bilan band bo'lmasa, uningda hayoti yoqimli bo'lmaydi" deydi. Ilk so'fiylardan bo'lmish Ibn Nurning "Zuhdning alomati, biror narsa yo'qolganda taskin topishdir" degan ifodasidan ham tushunish mumkinki, zuhd borlikdan shodlanmaslik, yo'qlikdan g'am chekmaslikdir. Bu zuhdning alomatidir. Quruq, tantanali, rasmiyatchilik va qattiq dindorlik sifatida qabul qilina boshlagan zohidlik munosabatlariga qarshi Bishr ibn Horis Hofiy "Odamlar uni bilishini istagan kishi oxirat mazasini topa olmaydi" degan bo'lsa, Suryon Saqatiy ham: "Zuhdga amal qilib, xohlagan darajaga yetdim. Biroq, xalqqa zohid bo'lish bundan mustasno. Chunki men bu darajaga yeta olmadim, bunga toqat qila olmadim"- deya ta'kidlaydi. So'fiylar bu kabi so'zlar bilan zohidlikdagi ixlos va Alloh uchun tarkning ahamiyatiga e'tibor qaratadilar. Zuhd, asosan, toatdan bahramand bo'lish va Alloh bilan aloqada bo'lishdir. Alloh bilan aloqada bo'lgan kishi boshqa hech kim bilan emas, faqat U bilan band bo'ladi. Bu tushunchaning talabi sifatida Abu Sulaymon Doroniy: "Jun to'n kiyish zuhdning alomatlaridandir. U holda qalbida besh dirhamlik kiyim kiyishni orzu qilgan zohid uch dirhamlik chopon kiymasin" (Aks holda, ichkariga ham, tashqarisiga ham sig'maydi), Sufyon Sarviy: "To'g'riga zohid bo'lish, dunyo

qanoatga ega bo'lmoq (kasri amal). Quruq non yeb, chopon kiyish zuhd emas". Zero, g'alla bilan xirmonni birga ko'rish, foyda va ziyon, maqtov va izzat, g'am va inoyatni birga ko'rish zohidlik yo'lining qadamlaridir. Birinchi davr so'fiylari tomonidan qabul qilingan zuhd hayoti: Tasavvuf va tasavvuf so'zlari Qur'on va hadislarida zikr qilinmagan, sahobalar va tobienlar davrida ham ma'lum tushunchalar emas. Payg'ambarimiz s.a.v. davrida tarbiyalangan. Uni ko'rishdan zavqlanganlar esa "sahobiy" deb atalganlari uchun o'sha davrda zohidlik va taqvo bilan ajralib turadigan shaxslarga boshqa nom berish shart emas edi. Sahobalar bilan birga o'sgan ikkinchi avlod "tobiin" deb atalganligi sababli, bu ism bilan atalishi ularga sharaf edi. "Taba-i tabiyn" davrida kengayib borayotgan Islom olamida farovonlik darajasi oshgani sayin, ibodat va zohidlik mavzulariga murojaat qilganlarga yangi nomlar berila boshlandi. So'fiylar faqrlikda yashashni sharaf deb bilishgan. Mulk Allohnikidir, degan fikrga asoslanib, ular Allohdan boshqa hammaga nisbatan mustaqil harakat qilganliklari uchun fuqaro deb atalgan. Ba'zilar ilohiy huzurga erishish uchun o'zlarining moddiy ustunliklarini saltanatgacha yiqitishni baxtning eng oliysi deb bildilar. IX asrning ikkinchi yarmida zohidlar orasidan paydo bo'lgan ayrim shaxslar dunyoni tashlab, o'zlaridan voz kechish nuqtayi nazaridan o'z zamondoshlaridan farqli hayot kechira boshladilar. "Ularga maxsus bir nom berish muqarrar edi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, jundan va dag'al to'qilgan kiyimlarni hisobga olib, "so'fiy" yoki "sufiye" deb atalgan. Ularning so'fiyligi biroz mubolag'a va zohidlik kasbining kengayishi va ilk asrlardagi zohidlik tushunchasidan iborat edi". [11.56] Abu Nasr as-Sarroj Tusiy asarining yettinchidan o'n uchinchi fasligacha sahobalardan jami 114 zohid, ahli baytdan imomlar, ahli suffa zohidlari, tobiin va ansorlar, taba tobiin zohidlari, pirlar, ko'zga ko'ringan so'fiylar, va turli shaharlardagi so'fiylar tarjimayi holi kiritilgan bo'lib ularni davriy ketma-ketlikda beradi¹. Bugun zohidlar shaxsiyati yoki badiiy adabiyotdagi zohid obrazini tahlil va talqin qilar ekanmiz, albatta, mana shu zohid deya tan olingan shaxslarni kimligi haqidaagi tasavvurimiz tiniq hamda chuqur bo'lmog'i zarur. Shundagina ilmda aniqlik, irfoniyy asarlarning g'oya hamda badiiyati tahlilida to'g'rilik bo'ladi. Hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim ul- muhabbat" asarida ham tariqatda o'z maqom va holiga ega, toat-ibodatda muqim bo'lgan, mashaqqat, riyozat bosqichlaridan o'tib ilmi hol maqollariga yuksalgan zotlar haqida hurmat va alohida e'tibor bilan yozadi [12] ushbu zotlar ro'yhati Navoiyning Ustozi Fariduddin Attorning "Tazkirat ul- avliyo" asarida ham keltiriladi. Fariduddin Attorning

¹ Prof. Dr. Ethem Cebecioğlu, Keşfu'l-Mahcûb'un Muhtevası ve kaynakları, İstanbul, 2008. s. 126. Hazrat Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Hasan ibn Ali, Husayn ibn Ali, Zaynibolidin, Muhammad Boqir, Jafar Sodiq, Uvays Qaraniy, Horim ibn Hayyon, Hasan Basriy, Said ibn Musayyib, Habib Ajami, Molik ibn Dinor, Abu Hotim Roy, Abu Hozim Madaniy, Muhammad ibn Vasiy, Abu Hanifa, Abdulloh ibn Muborak, Fuzayl ibn Ayo, Zunnun Misriy, Ibrohim ibn Adham, Bishr Hofiy, Boyazid Bistomiy, Xoris Muhasibiy, Dovud Tayi, Suriyon Saqatiy, Shayx Balxiy, Abu Sulaymon Daroniy, Ma'ruf Kahriy, Xotam Isom, Imom Shofeiyy, Ahmad ibn Hanbal, Ahmad ibn Abu Xavariy, Ahmad ibn Hadraviy, Abu Turob Nahshabiy, Yahyo ibn Muoz Roziy, Hamdun Qassor, Mansur ibn Ammor, Ahmad ibn Osim Antakiy, Abdulloh ibn Xubayd, Junayd Bag'dodiy, Abu Husayn Nuriy, Abu Usmon Xiriy, Ibn Jalla, Ruvaym, Yusuf ibn Husayn Roziy, Samnun Muhib, Shoh Shuja Kirmoniy, Amr ibn Usmon Makkiy, Sahl ibn Abdulloh Tustariy, Abu Abdulloh Balhiy, Hakim Termiziy, Abu Bakr Varrak, Abu Said Harroz, Ali ibn Sahl Isfahoniyy, Hayrun Nassaj, Abu Hamza Xurosoniy, Ibn Masruk, Abu Abdulloh Mag'ribiy, Abu Hasan ibn Ali Juzjoniyy, Abu Muhammad Jaririy, Abu Abbos Ahmad ibn Sahl Adamiy, Mansur Halloj, Ibrohim ibn Ahmad Havvos, Abu Hamza Bag'dodiy, Abu Bakr Vositiy, Shibliy, Jafar ibn Nusayr al-Huldiy, Ruzbariy, Abu Abbos Sayyoriy, Ibn Nur, Abu Usmon Said ibn Salom, Nasraboziy, Husriy, Ahmad ibn Muhammad Qassob, Abu Ali Dakkak, Haraqoniyy, Dabistoniyy, Abu Said Mihaniy, Hutli, Kushayriy, Abu Abbos Shakkoniyy, Abu Qosim Jurjoniyy, Muzaffar ibn Ahmad ibn Hamdam

ijodida va tasavvuf namoyondalari to'g'risidagi kitoblari ichida alohida o'rin tutadigan asari shubhasiz, "Tazkirat ul- avliyo"dir. Asarning birinchi tahririda yetmish ikkita, ikkinchi mukammal tahririda esa to'qson besh nafar eng yirik tasavvuf allomalarining qisqacha hayoti va faoliyati, asosan, turli masalalarga oid fikr-mulohazalari bayon etilgan. [13.6] Asar XIII asr boshlarida yaratilgan bo'lib, unda o'zigacha bo'lgan yaqin besh asrda yashab o'tgan aziz avliyo zotlar haqida ma'lumotlar mavjud va ushbu nomlari zikr etilgan insonlarning ko'pchiligi zuhhodlardan bo'lgani hech mubolag'a emas. Albatta, zuhd maslagi va zohid obrazining badiiy adabiyotdagi hayoti asarning g'oya va janr xususiyatlari bilan, davr bilan, shoir shaxsiyati bilan ham chambarchas bog'liq. Payg'ambarlar qissasi, tazkira, manoqiblarda zuhd va zohidlik insoniyat kamolatidagi bosh talablardan sanaladi. Epik turdagi asarlarda, xususan, dostonlarda qahramonlar erlik yo'lida ma'lum ma'noda zuhd bosqichini bosib o'tishadi yoki tarkidunyo qilib, zohidona hayotni ixtiyor etgan ma'naviy bobolardan madad olishadi. Ko'ngilning hududsiz hisu ehtiroslarini ifodalagan lirikada goh zuhdiy hayot sog'inchi, goh zuhdiy amallarga isyon tasvirlari beriladi.

References:

1. I.Naqqul. Meros va mohiyat, –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 3-b
2. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Т: Адабиёт ва санъат, 1991.
3. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. –Т.: “Ма’naviyat”, 1998
4. Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021.
5. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: 1999. – Б. 23
6. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш (3-китоб). –Т.: Тафаккур, 2016. В-99
7. Mehmet Doğan, Büyük Türkçe Sözlük, İstanbul, 1996, s. 1168
8. Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. 260-b
9. Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.
10. Kadir Özköse . Zühd ve sûflerin zühde yükledikleri anlam. Tasavvufta Dünyevileşmeye Tepkisel Yaklaşım. 2010
11. EBÛ NASR ES-SERRÂC ET-TÛSÎ, İstanbul, 2002, s.56
12. Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 1998.
13. Madrimov A. Tazkirat ul- avliyo. Muqaddima, Toshkent, G'. G'ulom nashriyoti. 6-bet.